

Mening Vatanim

Zamira Ibrohimova



Gohida o‘ylanib qolaman: Vatan nima degani? Nega biz “Ona Vatanim”, “Ota yurtim”, “Mening Vatanim”, deya faxr bilan aytamiz? Ustozimiz aytganidek, har bir insonning tug‘ilib o‘sgan joyi uning ona Vatani hisoblanadi. Menimcha, bu juda to‘g‘ri. Har bir odamning bitta onasi bo‘ladi. Vatan ham ona kabi yagona bo‘ladi. Uni sevamiz, ardoqlaymiz, uzoqda bo‘lganimizda sog‘inamiz.

Men ham ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan shu muqaddas yurt bilan faxrlanaman. Bu – Ota yurtim! Ona Vatanim! O‘zbekistonim! Men yurtimizning musaffo osmonini, iliq quyoshini, fayzli* mahallalarini yaxshi ko‘raman. Ariq bo‘yida o‘tirib suvning jildirab oqishini, qushlarning quvnoq ovozi tinglayman, rango-rang kapalaklarning uchib-qo‘nishini tomosha qilaman.

Odamlarimizning mehribonligi, ayniqsa, mehmondo‘stligi menga juda yoqadi. Uyimizga mehmon kelsa, quvonamiz. Dasturxon yozib, tansiq taomlarni baham ko‘ramiz. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g‘amxo‘r bo‘lishni ota-onamizdan o‘rganamiz.



Vatanimiz tarixi bilan g'ururlanaman. Buyuk allomalarimiz Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiylar jahon ilm-fani, adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularni yaqindan taniganim sayin shunday buyuk insonlar yashagan yurtida tug'ilganimdan quvonaman.

Har bir odam tug'ilib o'sgan Vatanidagina yayraydi. Zero, o'z uyimda, yonimda ota-onam, buvim, bobom, aka-opalarim bor. Ularga bemaolol erkanaman, ulardan maslahatlar olaman. Qo'shnilarimiz qarindoshdek qadrli. Maktabim, do'stlarim barchasi menga aziz, qarddon. Shuning uchun: "Ona Vatanimni juda yaxshi ko'raman! Ota yurtim bilan g'ururlanaman!" – deb baralla ayta olaman.

Vatanim ravnaqiga* hissa qo'shish uchun sog'lom hayot tarziga rioya etish, ko'proq kitob o'qib, fan cho'qqilarini egallash, hunar o'rganish va yaxshi inson bo'lishga intilaman.



fayzli – ko'rkam, yoqimli; jozibador
ravnaq – rivoj, gullab-yashnash



1. Matnga ko'ra, nima uchun Vatan xuddi onaga o'xshatiladi?
2. Matnda o'zbek xalqining qanday milliy qadriyatlari va fazilatleri haqida so'z yuritilgan?
3. Inson nima uchun faqat o'z tug'ilib o'sgan Vatanidagina erkin va baxtiyor yayray oladi?



Matndan mashhur insonlarning ismlarini toping. Ulardan biri haqida taqdimot tayyorlang. Matnning mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

